




BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

ISHBILARMONLIK KUZATUVI MUHITLARI,
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH, TASHQI
IQTISODIY FAOLIYAT VA SAVDO STATISTIKASI
BO'LIMI

Buxoro viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Ishbilarmalik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va kelgusida rag'batlantirish borasida ko'rilib yotgan chora-tadbirlar natijasida, joriy yilning yanvar-dekabrida 1,9 mingdan ortiq kichik biznes (dehqon va fermer xo`jaliklarisiz) sub`yektlari tashkil etildi yoki 2016 yilning shu davriga nisbatan 7,7 foizga ko`paydi. Mazkur kichik biznes sub`yektlarining eng ko`p qismi sanoat tarmog`ida (23,4%), savdo sohasida (16,5%), qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligida (20,5%) va qurilishda tarmog`ida (11,4%) tashkil etilgan.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2017 yilning yanvar–dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`yektlari tomonidan:

– sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2758,8 mld. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 43,4 foizi) yoki 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`sish sur`ati 98,3 foizni tashkil etdi;



– 921,6 mld. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 8,4 foizi) o`zlashtirildi yoki 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan 94,7 foizni tashkil etdi;



– 1643,5 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 67,8 foizi) bajarildi yoki 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`sish sur`ati 101,4 foizni tashkil etdi;



– 4015,3 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (jami xizmatlar hajmining 74,9 foizi), 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan 91,7 foizni tashkil etdi;




– chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining 91,2 foizi yoki 6000,2 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 15,3foiz) shakllantirildi;

– 197,5 mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 22,8 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksporti amalga oshirildi, bu esa 2016 yilga nisbatan 259,8 mln. AQSh dollari yoki 36,5 foizga ko'p;



Tovar va xizmatlar eksport qiluvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining ko'payishi, eksport hajmining oshishiga imkonyat yaratdi. Natijada umumiyligi maxsulotlar eksport tarkibida meva va sabzavot, poliz mahsulotlari eksport hajmini 2016 yil bilan solishtirganda 3732,1 ming AQSh dollariga, 122,0 foizga oshdi.


- avtomobil transporti yuk aylanmasining 6,3 foizga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 75,6 foizi);
- yo`lovchi aylanmasining esa 3,0 foizga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 97,9 foizi) ko`payishi ta`minlandi;



- 648,4 ming nafar kishining bandligi ta`minlandi (jami iqtisodiyotda band bo`lganlarning 78,5 foizi) .

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi eksportda – 40,5 foizni (2016 yilning yanvar–dekabrida 26,3 foiz), sanoatda – 43,4 foizni (46,3 foiz), xizmatlarda – 74,9 foizni (74,6 foiz), qurilishda – 67,8 foizni (65,8 foiz) va bandlikda – 75,5 foizni (75,5 foiz) tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foizda)



Hududlar bo`yicha sanoat tarmog`ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eng ko`p ulushini Vobkent tumani (99,9 foiz), Kogon (93,5 foiz), Buxoro (83,0 foiz) va Shofirkon (77,7 foiz) tumanlari tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yuqori ulushini Buxoro (100 foiz), Qorako'l (98,3 foiz), Peshko' (97,7 foiz), Olot (97,7 foiz), G'ijduvon (97,5 foiz), Shofirkon (96,7 foiz) va Vobkent (96,6 foiz) tumanlari tashkil qiladi.

Qurilishda Vobkent (100 foiz), G'ijduvon (97,3 foiz) va Peshko' (96,3 foiz) tumanlari tashkil qiladi.

Bandlikda esa, G'ijduvon (87,8 foiz), Jondor (87,3 foiz), Peshko' (85,7 foiz) va Vobkent (85,7 foiz) tumanlari tashkil qiladi.

**2017 yil yanvar– dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududlar
bo`yicha ulushi (foizda)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Bandlik</i>
Buxoro viloyati	43,4	74,9	67,8	78,5
Buxoro shahar	62,9	62,1	74,2	61,3
Kogon shahar	34,6	78	53,2	53,8
<i>Tumanlar</i>				
Olot	55,6	97,7	41,9	78,5
Buxoro	79,2	100	89,1	85,2
Vobkent	99,9	96,6	100	85,7
G'ijduvon	70,7	97,5	97,3	87,8
Kogon	94	80,4	60,9	82
Qorako'l	69,1	98,3	92,6	84,2
Qoravulbozor	1,2	39,3	8,4	1,4
Peshko'	60	97,7	96,3	85,7
Romitan	26,4	95,9	70,7	81,2
Jondor	59,4	94,6	95,2	87,3
Shofirkon	73,6	96,7	93,8	83,3


2017 yilning yanvar–dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHM dagi ulushi 69,8 foizni tashkil qildi (2016 yilning yanvar–dekabrida 70,8 foiz).

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2017 yil IV chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlari o’tkazildi. Unda 46 dan ortiq respondent ishtirok etdi.

Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, sanoat tarmog`idagi respondentlarning 33,3 foizi iqtisodiy vaziyatni- qulay va 50,0 foizi esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda – qoniqarli 83 foiz, savdo sohasida- 28,6 foiz va 57,1 foiz, xizmatlar sohasida – 20,0 foiz va 70,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa – 18,2 foiz va 72,7 foizni tashkil etganligini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashadiganlar sanoatda – 16,7 foiz, qurilishda – 16,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 9,1 foiz, savdoda – 14,3 foiz, xizmatlarda – 10 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2017 yil IV–chorak uchun



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin 3 oyda 66,7 foiz sanoat korxonalari, 42,9 foiz–savdo, 60,0 foiz–xizmatlar, 81,8 foiz – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida va 50,0 foiz – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin 3 oyda baholanishi



Kuzatuv natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin istiqbolda umumiyl iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.